

## ONKOLOGIYADA ZAMONAVIY RADIOLOGIYA VOSITALARI ORQALI KECHIKISHNI OLDINI OLISH

**Kuvondikova Zulfizar Jasurbek qizi**

*124 b – guruh talabasi 2-son davolash fakulteti,  
Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

**Shixov Yorbek Ollazarovich**

*Ilmiy rahbar: Toshkent davlat tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada vaqt va samarali tashxis qo'yish masalasi turadi. Vaziyatga insoniy yondashuv, real holatlar va hayotiy fikrlar ko'proq aks ettiriladi va ularga yechim topish ko'zda tutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Saraton radiologiya, terapiya, kechikish sabablari radio terapiyasi, tashxis, diagnostika, erta tashxis.*

### KIRISH

Tashxis — bu bemorga faqat kasallik nomini aytish emas. Bu unga hayotini qayta rejalashtirish imkonini berish, ba'zida esa umuman hayotini saqlab qolish demakdir. Ayniqsa, gap saraton haqida ketayotgan bo'lsa, bu tashxisning qachon qo'yilgani hamma narsani hal qiladi.

O'zbekistonda har yili minglab odamlar saraton tashxisi bilan yashay boshlaydi. Ko'pchilik bu tashxisni eshitganda — o'sha daqiqada — hayotlari ikki bo'lakka ajraladi: “avval” va “keyin”. Ammo eng og'ir tomoni shundaki, bu tashxis juda ko'p hollarda kechikadi. Kech tashxis — kech harakat, kech umid.

Mening kuzatishimcha, bu kechikishning eng asosiy sabablaridan biri — zamonaviy radiologik usullarning bemorlarga vaqtida qo'llanilmasligi. Ko'p hollarda apparatlar yo'qligi, mutaxassislarning kamligi yoki byurokratik kechikishlar sababli saraton juda so'nggi bosqichda aniqlanmoqda. Bu esa, ko'pchilik uchun yagona imkoniyatni — vaqtni — yo'qotadi.

Bu maqolani yozishga meni bir savol undadi: bizda zamonaviy radiologik usullar bor, ammo ular bemorlarga aynan kerakli vaqtda yetib boryaptimi?

Maqsadim — onkologik kasalliklarda tashxis qo'yish jarayonida radiologik usullarning o'rni, ularning samaradorligi va ayniqsa, vaqt omilining qanday rol o'ynashini tahlil qilish. Shuningdek, mavjud tizimda bu texnologiyalar qanday ishlayotgani, qanday holatlarda ular kechikayotganini, bemorlar bunga qanday munosabatda bo'layotganini o'rganish — bu maqolaning asosiy vazifalaridan biridir.

Quyidagi vazifalarni qo'ydim:

1. Erta tashxis muhimligini real holatlar asosida ochib berish — bemorlar bilan bo'lgan tajriba orqali.

2. Radiologik usullar (KT, MRT, PET/CT)ning afzalliklari va cheklovlarini tahlil qilish — ayniqsa ular qaysi bosqichda samaraliroq bo'lishini tushuntirish.

3. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimidagi radiologik xizmatlar holatini tahlil qilish — mavjud apparatlar, mutaxassislar va navbatlar haqida.

4. Tashxis jarayonida vaqtni tejaydigan va kechikishni oldini oladigan amaliy takliflar berish.

Maqolam orqali ko'rsatmoqchiman: har bir sekund qadrli. Saraton bu sekundlarni olmaydi — agar biz ularga to'g'ri vaqtida tashxis qo'ysak.

Men bu maqolani yozishda ikki asosiy yo'nalishga tayanishga harakat qildim: ilmiy manbalar tahlili va mavjud sog'liqni saqlash tizimidagi ochiq ma'lumotlar asosida mulohaza yuritish.

Avvalo, mavzu bo'yicha xalqaro miqyosdagi tibbiyot nashrlarini ko'rib chiqdim. Buning uchun PubMed, Google Scholar, va ScienceDirect kabi ilmiy bazalardan 2015–2024 yillarda chop etilgan maqolalar tanlab olindi. Tanlovda quyidagilarga e'tibor berildi:

- Radiologik diagnostika usullarining samaradorligi (KT, MRT, PET/CT);
- Onkologik kasalliklarda erta tashxis qo'yishning ahamiyati;
- Rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda, sog'liqni saqlash tizimidagi farqlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Milliy Onkologiya markazining statistik ma'lumotlaridan, tibbiyot sohasidagi mahalliy nashrlar, xususan, "Tibbiyot va fan" hamda "O'zbekiston tibbiyoti yangiliklari" kabi jurnallardagi maqolalardan foydalandim.

Garchi men hali amaliy faoliyatda qatnashmasam-da, tibbiyotga endigina qadam qo'ygan talaba sifatida onkologiyada tashxis masalalari bilan chuqur qiziqib kelmoqdaman.

Maqolani yozish davomida o'zimda tug'ilgan savollar orqali mavzuni yanada kengroq o'rganishga harakat qildim.

Tadqiqot usuli sifatida — mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ularni solishtirish va natijalar asosida xulosa chiqarish yo'lini tanladim. Bu uslub menga real vaziyatni tushunishda ilmiy asoslar bilan fikr yuritish imkonini berdi. Albatta hozirgi kunda ishlab chiqarish ko'pligi sababli ekologiyaga ham zarar yetmoqda va bu inson salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti.

Saraton kasalligining aniq sababi hozirgacha aniqlanmagan aynan bir sabab tufayli kelib chiqadi deyolmaymiz, etiologik qarashlar va tahlillardan xulosa qilib quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- Irsiy nuqsonlar - Li-Fraumeni sindromi suyak saratoni, ko'krak saratoni, yumshoq to'qimlar sakromasi, miya saratoniga olib kelishi mumkin;

- Turmush tarzi bilan bog'liq- yuqorida aytib o'tilganidek tamaki mahsulotlarining is'temol qilish natijasida o'pka saratoni, spirtli ichimliklar sababli oshqozon osti bezi saratoni;

- Ba'zi bakteriyalar va viruslar sababli Papiloma virusi(HPV) bachadon bo'yin saratoniga olib kelishi mumkin, gepatit virusi jigar saratoniga;

- Gormonal o'zgarishlar sababli ko'proq ayollarda ko'krak saratoni, esterogen gormonimimg o'zgarishlari sababli bachadon saratoniga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa Har bir sekund qadrli. Saraton bu sekundlarni olmaydi — agar biz ularga to'g'ri vaqtida tashxis qo'ysak. Vaqt — bu birinchi va eng muhim resurs. Shuning uchun, tashxisda kechikish har bir bemor uchun o'zgarimas oqibatlarga olib keladi. Bizning vazifamiz — bu vaqtni tejash, ayniqsa radiologik texnologiyalar orqali, va har bir imkoniyatni bemorlar uchun foydali tarzda ishlatishdir.

Onkologiyaga qiziqishim o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. Bu soha men uchun shaxsiy tajriba orqali chuqur ahamiyat kasb etdi. Taniganlarim orasida saratonga chalinganlar bo'lib, ularning og'ir holatlari, ayniqsa onaning ko'zlaridagi qayg'u va umidsizlikni ko'rganimdan so'ng, bu mavzu menga yanada yaqinlashdi. Bir tanishimning 6 yoshli o'g'li saratonga chalinganini eshitganimda, u bolani boshqacha kasallik deb tashxis qo'yishganini bilib, bu holat meni juda jiddiy o'ylantirdi. Tashxis kech qo'yilishi, bemorning salomatligining yomonlashishiga olib keladi, bu esa nafaqat bemor, balki uning yaqinlari uchun ham og'ir sinovdir. Tashxis qo'yishda kechikishning o'ziga xos oqibatlari mavjud: saratonning erta bosqichda aniqlanishi uning muvaffaqiyatli davolanishi uchun imkoniyat yaratadi, kech tashxis esa davolashni qiyinlashtiradi va bemorning umri qisqarishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan, men maqolamni aynan kech tashxisning qanday fojiali oqibatlarga olib kelishini yoritishga qaror qildim. Bu mavzu meni chuqur o'ylantiradi, chunki har bir kishi erta tashxis qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Maqsadim – saraton kasalligini erta aniqlash va buni amalga oshirishda mavjud texnologiyalar va usullarni tahlil qilish, kech tashxisning oqibatlarini yoritish va bu muammoning oldini olish yo'llarini ko'rsatishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. PubMed <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/>
2. ScienceDirect – <https://www.sciencedirect.com>
3. Google Scholar – <https://scholar.google.com>
4. Radiopaedia – <https://radiopaedia.org>
5. World Health Organization (WHO) – <https://www.who.int>
6. American Cancer Society – <https://www.cancer.org>
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi – <https://minzdrav.uz>